



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

Al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat universiteti

Turizm va iqtisodiyot fakulteti 201- Kasb ta'limi (Buxgalteriya hisobi va audit) guruhi
talabasi Matanov Sanjarning "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" fanidan

REFERATI

Mavzu: **Buxgalteriya balansi va uning tuzilishi**

BAJARDI:

Matanov S

QABUL QILDI:

Sultonov B.

Urganch – 2014 yil

Reja:

1. Buxgalteriya balansi to'g'risida tushuncha
2. Balansning tuzilishi va uning moddalari
3. Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida balansdagi o'zgarishlar
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buxgalteriya balansi to'g'risida tushuncha

Korxonalarining xo'jalik mablag'lari hamma vaqt kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida harakatda bo'ladi va davrlar bo'yicha ham miqdor, ham qiymat jihatidan o'zgarib turadi. Xo'jalik faoliyati ustidan rahbarlik qilish va boshqarish uchun korxonaga qanday mablag'larga ega, ularning tarkibi va qaerda joylashganligi hamda bu mablag'lar qanday manbalardan tashkil topganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lishi zarur. Xo'jalik mablag'larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning kelib chiqish manbalaridagi o'zgarishlarni bir-biriga solishtirib, ma'lum bir sanaga pul o'lchovida umumlashtirib aks ettirish buxgalteriya hisobi usulining muhim elementlaridan biri – balans yordamida amalga oshiriladi.

Balans yordamida xo'jalik mablag'lari, ularning holati, mavjudligi, joylanishi va tashkil topish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'linadi. Balans usulidan faqat buxgalteriya hisobidagina foydalaniladi deb tushunish noto'g'ridir. Bu usuldan rejalashtirish, ta'minot, statistika hisobida va operativ hisobda ham keng foydalaniladi. Shuning uchun ham balans usuli yordami bilan ma'lumotlarni umumlashtirish ko'p fanlarda qo'llaniladigan umumiy usullar qatoriga kiradi.

Buxgalteriya hisobida xo'jalik mablag'lari ikki tomonlama, ya'ni ularning tarkibi va joylanishiga hamda kelib chiqish manbalariga ko'ra aks ettirilishi hisobga olinib, balanslar tuzilayotganda ularda aks ettirilayotgan ma'lumotlar tengligiga e'tibor qilinadi. Korxonaga xo'jalik mablag'larining turlari va joylanishi hamda bu mablag'larning tashkil topish manbalari buxgalteriya balansining ikki tomonini tashkil qiladi.

Buxgalteriya balansida korxonaning xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari umumlashtirilib, odatda, kunning ohiriga (banklarda) yoki hisobot davridan keyingi oyning birinchi kuniga pul o'lchovida tuziladi. Korxonalarda hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari maxsus hujjatlarda qayd qilinadi. Bu hujjatlarga asoslanib buxgalteriya provodkalari tuziladi va ular buxgalteriya hisobining sintetik schyotlariga tarqatiladi. Hisobot davri ohirida sintetik schyotlar bo'yicha aylanma

vedomost tuziladi. Bunda hisobot davri boshidagi har qaysi sintetik schyotning boshlang`ich qoldig`i, hisobot davrida sodir bo`lgan aylanma summasi va hisobot davri ohiriga qoldiq summasi ko`rsatiladi.

Shuni qayd qilib o`tish kerakki, korxonalar xo`jalik mablag`lari va ular manbalarining kundalik xo`jalik faoliyatiga buxgalteriya balansi yordamida to`la baho berib bo`lmaydi. Darhaqiqat, kundalik xo`jalik faoliyatidagi o`zgarishlarni aks ettirib turish uchun buxgalteriya hisobining joriy ma`lumotlarini hisobga oluvchi schyotlar tizimi usulidan foydalaniladi. Lekin xo`jalik mablag`lari va ular manbalarining harakatini, ularda sodir bo`lgan o`zgarishlarni ma`lum bir sanaga to`plab aks ettirish talab qilinadi, chunki bunday yig`ib tasvirlash korxonalar xo`jalik mablag`larining, bir tomondan, tarkibi va holatidagi davriy o`zgarishni ko`rsatsa, ikkinchi tomondan, ularning tashkil topish manbalaridagi o`zgarishlarni aks ettiradi, shu bilan birga, u xo`jalik faoliyatining holatini iqtisodiy tahlil qilishda zarur hulosalar olish uchun muhim material hisoblanadi.

2. Balansning tuzilishi va uning moddalari

Bunday to`plash buxgalteriya hisobi usulining balans usuli yordamida amalga oshiriladi. Shunday qilib, buxgalteriya balansi korxonaning xo`jalik mablag`larini, bir tomondan, tarkibi, holati, joylanishi bo`yicha, ikkinchi tomondan, qanday manbadan paydo bo`lishiga qarab ma`lum bir sanaga pul o`lchovida yig`ib aks ettirish usulidir.

Buxgalteriya hisobi bo`yicha xalqaro buxgalteriya standartlarida buxgalteriya balansi balans hisoboti deb yuritiladi. Balans hisoboti korxonaning ma`lum sanaga bo`lgan moliyaviy holatini ko`rsatadi. Balans hisoboti korxonaning aktivlari, korxonaning boshqa huquqiy shaxslar va fuqarolarga bo`lgan majburiyatlari hamda aksiyali jamiyat shaklida faoliyat qiladigan korxonaning aksiyali kapitalining tafsiloti bilan berilgan ro`yhatini ko`rsatadi. Buxgalteriya balansini balans hisoboti deb atalishiga sabab, bu balansda korxonalar aktivlarining qiymatini, korxonaning boshqa huquqiy shaxslar va fuqarolarga bo`lgan majburiyatlarining umumiy qiymati bilan korxonaning kapitalini umumiy qiymatiga teng kelishidir.

Korxonalar kapitali – bu korxonalar o`z aktivlariga egaligidir. Korxonalar majburiyatlari esa

muayyan korxonaga aktivlariga uning kreditorlari tomonidan egaligidir. Balans hisoboti bo'yicha korxonaga aktivining qiymati uning kapitali qiymati bilan majburiyatlarining summasini yig'indisiga teng keladi. Yagona buxgalteriya balansining aktivida ham, passivida ham ikkitadan bo'lim bor:

Ko'rinib turibdiki, buxgalteriya balansini ikki tomonli ko'rinishga ega bo'lib, uning chap tomoni aktiv, o'ng tomoni esa passiv deb nomlanadi. Aktiv tomonida xo'jalik mablag'larining turlari, joylanishi ko'rsatilsa, passiv tomonida esa shu mablag'larning paydo bo'lish manbalari va qanday maqsadga ishlatilishi aks ettiriladi. Buxgalteriya balansining ikkala tomoni ham bir qancha moddalarga bo'linadi.

Demak, buxgalteriya balansini moddasi deb iqtisodiy jihatdan bir xil bo'lgan xo'jalik mablag'larining ma'lum bir turi yoki xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbaini balansda alohida aks ettiruvchi ko'rsatkichga aytiladi. Aktiv tomonidagi balans moddalarining yig'indi summasi passiv tomonidagi balans moddalarining yig'indi summasiga teng bo'lishi shart. Chunki balansning aktiv va passiv tomonida xo'jalik mablag'lari va shu mablag'larning tashkil topish manbalari ikki tomonlama aks ettiriladi. Balans moddalarini guruhlashtirish xo'jalik mablag'larining maqsadga muvofiq foydalanishini to'la nazorat qilish va korxonaning faoliyatini tahlil qilish uchun imkoniyat yaratadi. Buxgalteriya balansini tuzishda oldingi bobda ko'rsatib o'tilgan xo'jalik mablag'lari va manbalarining guruhlanishi asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga asoslanib korxonalar yagona buxgalteriya balansining shakli umumiy qabul qilingan. Aktiv moddalarining hususiyati shundaki, ular xo'jalik mablag'larining tarkibi, holati va joylanishini ko'rsatadi. Masalan asosiy vositalarning tarkibini har bir turi bo'yicha moddiy qiymatliklarni, pul mablag'larini va haqazo. Passiv moddalarida esa xo'jalik mablag'larining paydo bo'lish manbalari va ularning qanday maqsadga mo'ljallanganligi aks ettiriladi. Masalan, hamma fondlar, korxonaning turli xil qarzlari, joriy yilda olingan foyda va h.k.lar aks ettiriladi.

Balanslar o'zlarining mazmuni va qanday maqsadga qaratilganligiga qarab dastlabki, hisobot va tugatish balanslariga bo'linadi:

Korxonaga o'z faoliyatini boshlashda dastlabki yoki boshlang'ich balans tuziladi. Bu

passivida bu mablag`lar qanday manbalardan tashkil topganligi ko`rsatiladi;

Hisobot balansi korxonalar tomonidan har bir hisobot davri tugashi bilan tuziladi. Korxonalar oylik, chorak va yillik hisobot balanslarini tuzishlari mumkin. Bu balanslar, odatda, hisobot davridan keyingi oyning birinchi kuniga bo`lgan xo`jalik mablag`lari ularning joylanishi va tashkil topish manbalarini guruhlashtirgan holda ko`rsatadi;

Tugatish balansi korxonaga tugatilayotgan bo`lsa, shu tugatish kuniga bo`lgan uning mablag`larini, ularning joylanishi va tashkil topish manbalarining holatini ko`rsatish uchun tuziladi.

3.Xo`jalik operatsiyalari ta`sirida balansdagi o`zgarishlar

Korxonaning xo`jalik mablag`lari va manbalari xo`jalik jarayonida doimo harakatda bo`ladi. Sodir bo`layotgan jarayonlarning har birini o`z vaqtida hisobga olib borish zarurdir. Chunki har bir jarayonda ko`plab xo`jalik muomalalari amalga oshiriladi, ularning ta`sirida xo`jalik mablag`larining tarkibi, joylanishi va ularning tashkil topish manbalari o`zgarishi mumkin. Bu o`zgarish oqibati buxgalteriya balansining o`zgarishiga sabab bo`ladi, chunki balansning aktiv va passiv tomonida xo`jalik mablag`lari va ularning paydo bo`lish manbalari aks ettiriladi. Buxgalteriya balansini xo`jalik muomalalari ta`siri ostida o`zgarishini yakqolroq tasavvur qilish uchun korxonada sodir bo`lgan bir necha xo`jalik muomalalarini misol tariqasida keltiramiz. Masalan, korxonada qo`yidagi xo`jalik muomalalari sodir bo`ldi:

Birinchi muomala. Ishchi va xizmatchilarga ish haqi to`lash uchun korxonaning bankdagi hisob-kitob schyotidan kassaga 1.173.000 so`m naqd pul olindi. Bu muomala balansining aktiv qismidagi «Kassa» moddasidagi pul mablag`ining ko`payishiga va «hisob-kitob schyoti» moddasidagi pul mablag`ining kamayishiga sabab bo`ladi.

Ikkinchi muomala. Asosiy ishlab chiqarishga korxonaga ta`minot bo`limining omboridan 123.500 so`mlik hom-ashyo xarajat qilindi. Bu muomala natijasida balansning aktiv qismidagi «Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasidagi xarajatlarni ko`paytirib, «Ishlab chiqarish zahiralari» moddasidagi materiallar summasi kamayadi.

Uchinchi muomala. Korxonada omboridan mol sotib oluvchi xaridorlarga 586.000 soʻmlik tayyor mahsulot joʻnatildi. Bu muomala taʼsirida balansning aktiv qismidagi «Debitorlar bilan hisob-kitoblar (mollar, ishlar va xizmatlar)» moddasida koʻpayish va «Tayyor mahsulot» moddasida kamayish sodir boʻldi.

Koʻrinib turibdiki, bunday xoʻjalik muomalalari buxgalteriya balansining faqat aktiv tomonidagi moddalarda oʻzgarish sodir qildi yoki xoʻjalik muomalasi taʼsiri bilan balansning aktiv tomonida bir modda summasi koʻpayib, ikkinchi modda summasi kamaydi. Bunday xoʻjalik muomalalari taʼsirida balansning faqat aktiv qismida tegishli moddalari summalarda oʻzgarish sodir boʻladi, lekin balansning passiv tomonida va umumiy summasiga taʼsir qilmaydi.

Demak, xoʻjalik muomalalari taʼsirida buxgalteriya balansida sodir boʻladigan birinchi xil oʻzgarish deb, xoʻjalik mablagʻlarining tarkibi va joylanishini aks ettiradigan, balansning aktiv tomondagi tegishli moddalarda oʻzgarishga sabab boʻladigan, lekin balansning umumiy summasiga taʼsir qilmaydigan oʻzgarishga aytiladi. Oʻyning ikkinchi kunida qoʻyidagi xoʻjalik muomalalari amalga oshiriladi.

Toʻrtinchi muomala. Xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan 116.000 soʻm daromad soligʻi ushlandi. Bu muomala taʼsirida buxgalteriya balansining passiv tomonidagi «Kreditorlar bilan hisob-kitoblar» satrining «Budjet bilan» moddasidagi summasi koʻpayib, shu moddaning «Mehnatga haq toʻlashga doir» moddasiga summa kamaydi.

Beshinchi muomala. Oʻz vaqtida talab qilib olinmagan kreditorlarning 151.200 soʻmlik ish haqi davlat budjetiga hisoblab qoʻyildi. Bu muomala natijasida buxgalteriya balansining passiv tomonidagi «Kreditorlar bilan hisob-kitoblar» satrining «Budjet bilan» moddasi summasi koʻpayishi va «Mollar va xarajatlar uchun» moddasining summasi kamayishi sodir boʻldi.

Oltinchi muomala. Taʼtilga chiqqan ishlab chiqarish xodimiga 120.000 soʻm taʼtil haqi kelgusida qilinadigan xarajatlar va toʻlovlar zahiralari hisobidan hisoblanadi. «Kelgusida qilinadigan xarajatlar va toʻlovlar» moddasi summasini kamaytiradi.

tomonida o'zgarishga olib keldi yoki passiv tomondagi bir modda summasi ko'payib, ikkinchisi esa kamaydi. Shu turdagi xo'jalik muomalalarining hammasida ham balansning passiv tomondagi moddalarda o'zgarish bo'ladi, ammo balansning umumiy summasiga ta'sir qilmaydi.

Xo'jalik muomalalari ta'sirida balansda ro'y beradigan ikkinchi xil o'zgarish deb, xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini aks ettiradigan balansning passiv tomondagi tegishli moddalarda o'zgarishga sabab bo'ladigan, lekin balansning aktiv tomoni va umumiy summasiga ta'sir qilmaydigan o'zgarishga aytiladi.

Ettinchi muomala. Korxonada ta'minot bo'limining omboriga mol yetkazib beruvchilardan 1.138.600 so'mlik asosiy materiallar qabul qilindi. Bu materiallar uchun hali pul o'tkazib berilgani yo'q. Bu xo'jalik muomalalari natijasida buxgalteriya balansi aktiv tomondagi «Ishlab chiqarish zahiralari» moddasidagi materiallar summasida ko'payish va passiv tomondagi «Kreditorlar bilan hisob-kitoblar» moddasining «Mollar va xarajatlar uchun» kichik moddasidagi korxonaning qarzida ham ko'payish sodir bo'ldi.

Sakkizinchi muomala. Korxonadagi asosiy vositalardan foydalanish davomida eskirish summasi aniqlanib, amortizatsiya ajratmasi sifatida xarajatga 836.000 so'm qo'shildi. Bu summaga balansning aktiv qismidagi «Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasida xarajatlar ko'paydi va passiv qismidagi «Asosiy vositalarning eskirishi» moddasida manba summasi ham ko'paydi.

To'qqizinchi muomala. Bankdan 2.850.000 so'm qisqa muddatli ssuda olindi va korxonaning hisob-kitob schyotiga o'tkazildi. Bu muomala ta'sirida balansning aktiv qismidagi «Hisob-kitob schyoti» moddasidagi pul mablag'ida ko'payish va passiv qismidagi «Banklarning qisqa muddatli kreditlari» moddasidagi korxonaning bankdan qarzida ham ko'payish sodir bo'ldi.

Sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari natijasida buxgalteriya balansining ham aktiv qismidagi va ham passiv qismidagi mos moddalarda ko'payishga olib keldi.

Ko`rinib turibdiki, buxgalteriya balansining ham aktiv, ham passiv tomonida ko`payish sodir bo`ldi, shuningdek, balansning umumiy summasi ham ko`paydi. Ammo aktiv va passiv tomonlar yig`indisining tengligi hamma vaqt buzilmaydi.

Xo`jalik muomalalari ta'sirida buxgalteriya balansida ro'y beradigan uchinchi xil o`zgarish deb, xo`jalik mablag`larining tarkibi va joylanishini aks ettiradigan, balansning aktiv tomonidagi tegishli moddasida va shu mablag`larning manbalarini aks ettiradigan balansning passiv tomonidagi tegishli moddasida bir vaqtda, bir xil summaga ko`payish sodir qiladigan, shuningdek, balansning umumiy summasini ham ko`paytiradigan o`zgarishga aytiladi.

O`ninch muomala. Korxonada xodimlariga 1.074.000 so`mlik ish haqi kassadan to`landi. Bu muomala ta'sirida balansning aktiv tomonidagi «Kassa» moddasidagi mablag`lar qoldig`i hamda passiv tomonidagi «Kreditorlar bilan hisob-kitoblar» moddasining «Mehnatga haq to`lashga doir» kichik moddasidagi korxonaning ishchilardan qarzi kamayadi.

O`n birinchi muomala. Korxonaning hisob-kitob schyotidan 351.120 so`mlik budjetga bo`lgan qarzi o`tkazib berildi. Bu xo`jalik muomalasi natijasida balansning aktiv tomonidagi «Hisob-kitob schyoti» moddasidagi pul mablag`i va balansning passiv tomonidagi «Kreditorlar bilan hisob-kitoblar» moddasining «Budjet bilan» kichik moddasidagi budjetga bo`lgan qarz summasi kamayadi.

O`n ikkinchi muomala. Korxonaning hisob-kitob schyotidan mol yetkazib beruvchilar uchun 315.480 so`m pul berildi. Bu muomala ta'sirida balansning aktiv tomonidagi «Hisob-kitob schyoti» moddasida pul mablag`i va balansning passiv tomonidagi «Kreditorlar bilan hisob-kitoblar» moddasining «Mollar va xarajatlar uchun» kichik moddasidagi korxonaning kreditor qarzi summasi kamaydi.


Keltirilgan xo`jalik muomalalari ta'sirida buxgalteriya balansining ham aktiv qismidagi moddalarda, ham passiv qismidagi moddalarda kamayishga olib keldi. Bu yerda ko`p hollarda uchinchi xil o`zgarishlardagi xo`jalik muomalalarining teskarisi sodir bo`ladi. Balansning aktivida ham, passivida ham muomalalar ta'sirida kamayish

sodir bo`lmoqda, shuningdek, tegishli summaga balansning umumiy summasida ham kamayish sodir bo`lmoqda. Bu yerda ham yuqoridagilardek aktiv va passivning tengligi buzilgani yo`q.

Xo`jalik muomalalari ta'sirida buxgalteriya balansida sodir bo`ladigan to`rtinchi xil o`zgarish deb, xo`jalik mablag`larining tarkibi va joylashganligini aks ettiradigan balansning aktiv tomonidagi tegishli moddalarda va shu mablag`larning manbalarini aks ettiradigan balansning passiv tomonidagi tegishli moddalarda bir vaqtda kamayish sodir qiladigan shuningdek, balansning umumiy summasini kamaytiradigan o`zgarishga aytiladi. Binobarin, yuqorida keltirilgan misol hamda izohlarga ko`ra xo`jalik muomalalari ta'sirida birinchi va ikkinchi xil o`zgarishlarda o`zgarish faqat balansning aktiv qismidagi moddalar ichida yoki passiv qismidagi moddalar ichida alohida ko`payib, ikkinchisining kamayishiga olib kelib, shu bilan birga balansning aktiv va passiv qismilarida umumiy summa o`zgarishsiz qoladi. Uchinchi va turtinchi xil o`zgarishlarda esa o`zgarish balansning aktiv qismidagi tegishli moddalarni ham, uning passiv qismidagi tegishli moddalarini ham bir vaqtda ko`paytiradi yoki kamaytiradi, shu bilan birga balansning umumiy summasiga ham ta'sir qiladi, ya'ni yoki ko`paytiradi yoki kamaytiradi.

Demak, har qanday xo`jalik muomalasi balansda ko`rsatilgan to`rt xil o`zgarishdan birining bo`lishiga sabab bo`ladi. Har bir xo`jalik muomalasi balansda ikkita bir-biriga teng o`zgarish sodir qiladi, bu narsa xo`jalik mablag`larining aylanishidagi hususiyatidan kelib chiqadi, chunki takror ishlab chiqarish jarayonida ikki tamonlama o`zgarish, ya'ni yoki xo`jalik mablag`larida, yoki uning manbaida, yoki bir vaqtda ham mablag`da, ham manbada sodir bo`ladi. Lekin har qanday xo`jalik muomalasidan keyin ham balansning aktiv va passiv tamonlarining jami summasidagi tenglik saqlanib qolishi shartdir. Korxonada xo`jalik mablag`larini, uning paydo bo`lish manbalarini, shuningdek, jarayonlarini joriy hisobga olish amaliyoti bir xo`jalik muomalasidan keyin buxgalteriya balansi tuzish imkoniyatini bermaydi. Chunki bir kunda bir necha yuzlab xo`jalik muomalalari amalga oshirilishi mumkin.

Aktiv		Passiv	
Ko'payish	Kamayish	Kamayish	Ko'payish



2.1-chizma. Balansdagi o'zgarishlarning turlari

Balansli o'zgarishlar turlarining mohiyatini aniqlash balans xususiyatlarini, ya'ni har qanday operatsiya uning, albatta, ikki moddasiga ta'sir etishini va hech qachon aktiv bilan passiv o'rtasidagi tenglikni buzmasligini tushunib olish uchun zarurdir. Operatsiyalarning iqtisodiy mazmunini o'rganishga ushbu guruhlashning hech qanday aloqasi yo'q.

Xulosa

Buxgalteriya balansi - xo'jalik mablag'larini ularning turlari va tashkil topish manbalari bo'yicha muayyan bir davrga pulda ifodalanib, umumlashtirib aks ettirish va iqtisodiy guruhlash usulidir.

Yangi xo'jalik yuritish sharoitida korxonalar faoliyatlarini nazorat qilish va uni takomillashtirishida buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan faol foydalanish zaruriyati kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha mutahassislarning roli beqiyosdir. Shu munosabat bilan ularni tayyorlash ham yaxshilanishi zarur. Buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha mutahassislar samarali xo'jalik yuritishga ko'maklashishlari, iqtisodiy vaziyatlarida tez va xatosiz mo'ljal olish, bozor iqtisodiyotining tendentsiyalarini tushunishlari zarur.

Shunday ekan, "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" kursi bo'yicha tayyorlangan ushbu ma'ruza matnlari korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish asoslari mavzularini yoritgan. Ushbu mavzularda buxgalteriya hisobining predmeti, usullari, buxgalteriya balansi, schyotlar tizimi, ikki yoqlama yozuv, hisobot kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Ushbu ma'ruza matnlari iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha bakalavr yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakieva X., Rizaev N. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O`quv qo`llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2008. -324 b.
2. Daraeva Yu.A. Teoriya buxgalterskogo ucheta. Konspekt lektsiy. 2008, 160s.
3. Rogojin M.Yu. Deloproizvodstvo i dokumentooborot v buxgalterii, GrossMedia-2009.
4. Fulomova F. Buxgalteriya hisobini mustaqil o`rganuvchilar uchun qo`llanma. - T.: "NORMA" nashriyoti, 2010. -507 b.

Internet saytlar

www.forum.ziyouz.com

www.el.tfi.uz

www.aroma.org.uz

www.ziyouz.net